

TUXUMDON ENDOMETRIOID KISTALARIDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR VA FIBROZ JARAYONLARNING ONKOLOGIK AHAMIYATI

Mamazoyitova Navbahor Shuhratjon qizi

FJSTI 1-bosqich magistr talabasi

Ibragimova Ziyodaxon Jalolidinovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Gistologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi O'zbekiston respublikasi Farg'ona shahri +998912053596 +998944991196

Annotatsiya: *Tadqiqot tuxumdon endometrioid kistalarida morfoloqik o'zgarishlar, fibroz jarayonlar va ularning onkologik muammolarga ta'sirini o'rganadi. Natijalar ko'rsatdiki, stromal fibroz, epitelial remodelling va hujayravii atipiya ayrim hollarda malign transformatsiya xavfini oshiradi. Shu bois, endometrioid kistalarni erta aniqlash va dinamik kuzatish onkologik jihatdan muhim ahamiyatga ega.*

Abstract: *The research examines morphological changes, fibrotic processes, and their impact on oncological issues in ovarian endometrioid cysts. The results indicated that stromal fibrosis, epithelial remodeling, and cellular atypia increase the risk of malignant transformation in certain cases. Therefore, early detection and dynamic monitoring of endometrioid cysts are of great oncological significance.*

Аннотация: *Исследование изучает морфологические изменения, процессы фиброза и их влияние на онкологические проблемы при эндометриоидных кистах яичников. Результаты показали, что стромальный фиброз, эпителиальное ремоделирование и клеточная атипия в некоторых случаях повышают риск малигнизации (злокачественного перерождения). Поэтому раннее выявление и динамическое наблюдение за эндометриоидными кистами имеют важное онкологическое значение.*

Kalit so'zlar: *Tuxumdon, Endometrioid kista, Morfoloqik o'zgarishlar, Fibroz jarayon, Malign transformatsiya, Onkologik muammo.*

DOLZARBLIGI

Tuxumdon endometrioid kistalari reproduktiv yoshdagi ayollarda keng tarqalgan bo'lib, ularning uzoq davom etishi to'qimalarda chuqur morfoloqik o'zgarishlar, fibroz va remodelling jarayonlari rivojlanishiga olib keladi. Ushbu o'zgarishlar ayrim hollarda malign transformatsiya xavfini oshirishi mumkin, bu esa mazkur patologiyaaning onkologik ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi.

Tuxumdon endometrioid kistalarida to'qima remodellingi va fibroz jarayonlarining morfoloqik xususiyatlarini baholash hamda ularning onkologik ahamiyatini aniqlash.

Material va usullar.

Tadqiqotda tuxumdon endometrioid kistalaridan olingan biopsiya va operatsion materiallar histologik usullar yordamida o'rganildi. Preparatlar gematoksilin-eozin hamda maxsus bo'yoqlar bilan bo'yalib, stromal fibroz, yallig'lanish infiltratsiyasi, bez epiteliyidagi proliferativ o'zgarishlar baholandi.

Natijalar.

O'rganilgan preparatlarda fibroz to'qimaning rivojlanishi, kollagen tolalarining ko'payishi, stromaning zichlashuvi hamda epitelial remodelling belgilari aniqlandi. Ayrim hollarda hujayraviy atipiya elementlari va proliferativ faollikning oshishi kuzatildi, bu esa malignizatsiya xavfi mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tuxumdon endometrioid kistalarida quyidagi morfologik o'zgarishlar ustunlik qiladi:

Endometriyga o'xshash bezli epiteliy va stromaning mavjudligi

Takroriy gemorragiyalar natijasida gemosiderin to'plangan makrofaglar

Surunkali yallig'lanish infiltratsiyasi

Ushbu o'zgarishlar fonida fibroz jarayonlar rivojlanib, stromada kollagen tolalarining ko'payishi, fibroblast va miofibroblastlarning faollashuvi kuzatildi. Fibroz jarayon tuxumdon parenximasining siqilishiga, uning funksional zaxirasining kamayishiga olib keladi.

Fibroz va surunkali yallig'lanish natijasida:

Gipoksiya kuchayadi

Oksidativ stress ortadi

DNK shikastlanishi ehtimoli oshadi

Bu holatlar epitelial hujayralarning atipik o'zgarishlariga, proliferativ faollikning ortishiga va epitelial-mezenximal transformatsiya (EMT) jarayonining faollashuviga sabab bo'ladi.

Aynan shu mexanizmlar endometrioid va shaffof hujayrali tuxumdon raki rivojlanishining morfologik asosi sifatida qaraladi.

Immunogistokimyoviy tekshiruvlarga oid ma'lumotlar fibroz darajasi yuqori bo'lgan kistalarda Ki-67 proliferatsiya indeksining oshishi, p53 ekspressiyasining buzilishi va ARID1A gen mutatsiyalari ko'proq uchrashini ko'rsatadi.

Xulosa.

Tuxumdon endometrioid kistalarida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar va fibroz jarayonlar onkologik jihatdan muhim bo'lib, ularni erta aniqlash va dinamik kuzatuv qilish tuxumdon o'smalarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tuxumdon endometrioid kistalarida kuzatiladigan morfologik o'zgarishlar va fibroz jarayonlar nafaqat kasallikning og'ir kechishiga, balki uning onkologik transformatsiya xavfining oshishiga ham olib keladi. Fibroz jarayonlar malignizatsiya uchun qulay mikro-muhit yaratib, hujayra proliferatsiyasi va genetik beqarorlikni kuchaytiradi.

Shu sababli tuxumdon endometrioid kistalarini baholashda fibroz darajasini aniqlash va onkologik hushyorlikni oshirish muhim klinik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov A.A., Karimova M.Sh. Akusherlik va ginekologiya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2018.
2. Ismoilov S.I., Xudoyberdiyeva D.R. Ayollar reproduktiv tizimi kasalliklari. — Toshkent: O'zbekiston tibbiyot akademiyasi nashri, 2020.
3. Giudice L.C., Kao L.C. Endometrioz kasalligi. The Lancet. 2004;364(9447):1789–1799.
4. Nezhat F., Datta M.S., Hanson V., Pejovic T., Nezhat C. Endometrioz va tuxumdon o'smalari o'rtasidagi bog'liqlik. Fertility and Sterility. 2008;90(5):1559–1570.
5. Kurman R.J., Shih I.M. Tuxumdon karsinogenezining dualistik modeli. American Journal of Pathology. 2010;176(6):2701–2712.